

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## MATEMATIKA

**O.U.Nasriddinov, I.M.Madibragimova, O.S.Isomiddinova**

Differensial tenglamaga keluvchi statika masalasini Maple dasturida yechish ..... 7

## KIMYO

**I.R.Asqarov, I.M.To'lqinov**

Study of the quantity of phenol compounds in the content of retail and gazanda plants ..... 12

**I.R.Asqarov, B.A.Jalilov**

Kanakunjut va zig'ir o'simligi tarkibidagi fenol birikmalar miqdorini o'rganish ..... 16

**G.J.Muqumova, X.X.Turayev, Sh.A.Kasimov, N.J.Karimova**

KFQ (karbamid, formalin va qahrabo kislota asosida olingan) sorbentining reaksiyon qobiliyatini kvant kimyoviy tahlillari ..... 20

**G.I.Zakirova, D.B.Karimova, V.U.Xo'jayev***Eriobotrya japonica* urug'i tarkibidagi aminokislotalarni yussx usulida aniqlash ..... 26**Z.Q.Axmedova, I.R.Asqarov, Sh.M.Kirgizov***Taraxacum officinale* o'simligining yer ustki qismini uchuvchan komponentlari va ularning mikroblarga qarshi faolligi ..... 32**M.Z.Alieva, G.A.Nuraliyeva**

Cd(II) tuzini 2-amino 1,3,4-tiadiazol bilan kompleks birikmasining tuzilishini fizik-kimyoviy usullar yordamida o'rganish ..... 37

**X.Sh.Bobojonov, X.U.Usmanova, Z.A.Sanova**

Galliy va alyuminiy ionlarini lyuminessent usulda aniqlashda qo'llaniladigan organik reagentlarni immobillash ..... 44

**Sh.B.Mamatova, M.J.Qurbanov**

Ikkilamchi polietilen chiqindisi asosidagi polimer kompozitsion materiallarning zichligini gidrostatik tortish usulida o'rganish ..... 49

**I.R.Mamajanova, A.A.Ibragimov**Farg'ona viloyatining uchta turmanidan olingan *Prunus cerasus* L. o'simligi namunalarinig element tarkibini icp-ms usuli bilan tadqiq qilish ..... 54**J.E.Shamshiyev, A.A.Ibragimov, O.M.Nazarov**

Mahaliyi vino mahsulotlarining makro va mikroelement tarkibini o'rganish ..... 60

**I.R.Asqarov, M.D.Xamdamova**

Methods of using wheat bran in the treatment of certain diseases ..... 67

**D.T.Toshpulatov, X.Sh.Tashpulatov, A.M.Nasimov, G.B.Eshmuradova, Sh.E.Mirzayev,****H.Q.Toshpulatov**

6,6-disiyano-2,2-bipiridin bilan Kobalt(II) ning gomoleptik kompleks birikmasi sintezi va fotokimyoviy tadqiqoti ..... 71

**A.A.Kucharov, S.U.Xalilov, F.M.Yusupov**

Ko'mirni qayta ishlash va ko'mirdan metallarni ajratishning energiya tejamkor texnologiyasini ilmiy tadqiqi ..... 76

**K.K.Pirniazov, Р.Ю.Милушева, С.Ш.Рашидова**

Получение нановолокон на основе хитозана и аскорбиновой кислоты и их перспективы в применении ..... 82

**B.N.Hamidov, A.Sh.Shukurov, M.Y.Ismoilov**

Surkov moyi kompozitsiyasining fizik-kimyoviy xususiyatlarini aniqlash usullari ..... 91

**Б.Н.Хамидов, С.А.Кодиров, М.Ю.Исмоилов**

Водопоглощения и водонепроницаемость гидроизоляционного материала гидроизол-к ..... 96



УО'К: 615.322:582.

**ERIOBOTRYA JAPONICA URUG'I TARKIBIDAGI AMINOKISLOTALARINI YUSSX  
USULIDA ANIQLASH**

**ОПРЕДЕЛЕНИЕ АМИНОКИСЛОТ В СЕМЕНАХ ERIOBOTRYA JAPONICA МЕТОДОМ  
ВЭЖХ**

**DETERMINATION OF AMINO ACIDS IN ERIOBOTRYA JAPONICA SEED BY HPLC**

Zakirova Gulnoraxon Ibroximjon qizi<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Qo'qon davlat pedagogika instituti doktoranti

Karimova Dilovar Batirovna<sup>2</sup>

<sup>2</sup>Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD

Xo'jayev Vahobjon Umarovich<sup>3</sup>

<sup>3</sup>Qo'qon davlat pedagogika instituti professori, k.f.d.

**Annotatsiya**

Aminokislotalar fiziologik jihatdan muhim birikmalarini tashkil etib, oqsil, ferment, nuklein kislotalar, yog'lar va gormonlar sintezida ishtirok etadi. Ular keng farmakologik ta'sir spektriga ega bo'lganligi uchun organizmda oson hazm bo'ladi, shu bilan birga inson organizmi uchun havfsiz vosita bo'lib xizmat qiladi. Almashinmaydigan aminokislotalarga ega bo'lgan o'simliklardan xalq tabobati uchun keng foydalanish, xavfsiz dori vositalarini tayyorlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Eriobotrya japonica o'simligi mevasi tarkibidagi urug'ning aminokislotalariga sifat va miqdor jihatdan yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usulida o'rganish tadqiqotning maqsadi etib belgilandi. Namuna sifatida Farg'ona viloyatida yetishtirilayotgan eriobotrya japonica mevasining urug'i tanlab olindi, uning tarkibidagi aminokislotalar YuSSX Agilent 1260 II Infiniti qurilmasi floresan (FLD) detektori yordamida aniqlandi. Namuna tarkibida 18 xil aminokislotalar sifat va miqdor jihatdan taxlil qilindi. Olingan natijalarga ko'ra, namuna tarkibida 13 turdag'i aminokislotalar mavjud bo'lib, eng yuqori miqdorda lizin (18.947mg/g) mavjudligi aniqlandi. Eriobotrya japonica urug'ida almashinmaydigan aminokislotalardan arginin (0.0656mg/g), valin (0.0474mg/g), gistiadin (0.0144mg/g), izoleytins (0.16mg/g), metionin (0.017mg/g), triptofan (0.097mg/g), fenilalaninlar (0.0425mg/g) aminokislotalari, almashinadigan aminokislotalardan esa glitsin (0.927mg/g), alanin (0.207mg/g), serin (0.2839mg/g) va tirozin (0.034mg/g) aminokislotalari bor ekanligi tadqiq etildi. Almashinmaydigan aminokislotalar miqdori 0.0144mg/g dan 18.947mg/g ga qadar bo'lgan. Urug' tarkibida leysin, glutamin, asparagin, prolin va trianin aminokislotalari uchramadi. Eriobotrya japonica urug'i tarkibidagi boshqa biologik faol birikmalar bilan birgalikda tarkibidagi almashinmaydigan aminokislotalarning mavjudligi uning terapevtik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi hamda yangi turdag'i tabiiy dori vositalarini ishlab chiqarishga zamin yaratadi.

**Аннотация**

Аминокислоты участвуют в синтезе белков, ферментов, нуклеиновых кислот, жиров и гормонов, образуя физиологически важные соединения. Поскольку они обладают широким фармакологическим спектром действия, они легко усваиваются организмом, а также служат безопасным средством для человеческого организма. Широкое применение в народной медицине растений с незаменимыми аминокислотами, изготовление безопасных лекарственных средств—один из актуальных вопросов на сегодняшний день. Целью исследования было изучение аминокислотного состава семян плодов растения *Eriobotrya Japonica* методом качественной и количественной высокоеффективной жидкостной хроматографии. В качестве образца были отобраны семена плода *Eriobotrya Japonica*, выращиваемого в Ферганской области, аминокислоты в котором были обнаружены с помощью детектора флуоресценции (FLD) устройства ВЭЖХ Agilent 1260 II Infiniti. В образце было качественно и количественно проанализировано 18 различных аминокислот. По полученным результатам было установлено, что существует 13 типов аминокислот, причем наибольшее количество лизина (18,947 мг/г) присутствует. Из незаменимых аминокислот в семенах *Eriobotrya Japonica* можно выделить аргинин (0,0656 мг/г), валин (0,0474 мг/г), гистидин (0,0144 мг/г), изолейцин (0,16 мг/г), метионин (0,017 мг/г), триптофан (0,097 мг/г), фенилаланины (0,0425 мг / г) из замещенных аминокислот были исследованы аминокислоты глицин (0,927 мг/г), аланин (0,207 мг/г), серин (0,2839 мг/г) и тирозин (0,034 мг/г). По полученным результатам было установлено, что образец содержит 13 типов аминокислот, причем наибольшее количество лизина (18,947 мг/г). Из незаменимых аминокислот в семенах *Eriobotrya Japonica*

## KIMYO

можно выделить аргинин (0,0656 мг/г), валин (0,0474 мг/г), гистидин (0,0144 мг/г), изолейцин (0,16 мг/г), метионин (0,017 мг/г), триптофан (0,097 мг/г), фенилаланины (0,0425 мг / г) из замещенных аминокислот были исследованы аминокислоты глицина (0,927 мг/г), аланин (0,207 мг/г), Серин (0,2839 мг/г) и тирозин (0,034 мг/г). Количество незаменимых аминокислот варьировалось от 0,0144 мг / г до 18,947 мг / г. Семена не содержали аминокислот лейцина, глутамина, аспарагина, пролина и трианина. Наличие в составе семян *Eriobotrya Japonica* вместе с другими биологически активными соединениями незаменимых аминокислот свидетельствует о его терапевтической ценности, а также закладывает основу для разработки новых видов натуральных средств.

**Abstract**

*Amino acids form physiologically important compounds and participate in the synthesis of proteins, enzymes, nucleic acids, fats and hormones. As they have a wide spectrum of pharmacological effects, they are easily digested by the body, and at the same time, they serve as a safe tool for the human body. Wide use of plants with non-exchangeable amino acids for folk medicine, preparation of safe medicines is one of the urgent issues today. The purpose of the study was to study the amino acid composition of the seeds of the *Eriobotrya japonica* fruit in terms of quality and quantity using the high performance liquid chromatography method. As a sample, the seed of *Eriobotrya japonica* fruit grown in Fergana region was selected, the amino acids contained in it were determined using a YuSSX Agilent 1260 II Infiniti device fluorescence (FLD) detector. 18 different amino acids in the sample were qualitatively and quantitatively analyzed. According to the obtained results, the sample contains 13 types of amino acids, and the highest amount of lysine (18.947mg/g) was found. Arginine (0.0656mg/g), valine (0.0474mg/g), histidine (0.0144mg/g), isoleucine (0.16mg/g), methionine (0.017mg/g), tryptophan (0.097mg/g) are non-exchangeable amino acids in *Eriobotrya japonica* seeds. g), phenylalanine (0.0425mg/g) amino acids, and glycine (0.927mg/g), alanine (0.207mg/g), serine (0.2839mg/g) and tyrosine (0.034mg/g) amino acids. done. The amount of non-exchangeable amino acids ranged from 0.0144mg/g to 18.947mg/g. Amino acids leucine, glutamine, asparagine, proline and trianine were not found in the seed. The presence of non-exchangeable amino acids in *Eriobotrya japonica* seeds together with other biologically active compounds indicates its therapeutic value and creates a basis for the production of new types of natural medicines.*

**Kalit so'zlar:** eriobotrya japonica, almashinadigan aminokislotalar, almashinmaydigan aminokislotalar, yuqori samarali suyuqlik xromatografiysi.

**Ключевые слова:** eriobotrya japonica, заменимые аминокислоты, незаменимые аминокислоты, высокоэффективная жидкостная хроматография.

**Key words:** eriobotrya japonica, interchangeable amino acids, essential amino acids, high-performance liquid chromatography.

**KIRISH**

Hozirgi davrda farmatsevtika bozorida tabiiy xom ashylardan tayyorlanadigan dori-darmonlardan foydalanish tendentsiyasi ortib bormoqda. Ular sintetik vositalardan farqli o'laroq inson organizmi uchun nojo'ya ta'sirlarni keltirib chiqarmaydi. Bunda aminokislotalar alohida rol o'ynaydi. Shuning uchun aminokislotalarni tabiiy xom ashylardan ajratish usullarini o'rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI.**

Aminokislotalar fiziologik jihatdan muhim birikmalarini tashkil etib, oqsil, ferment, nuklein kislotalar, yog'lar va gormonlar sintezida ishtirot etadi[1]. Aminokislotalar tibbiyotda dori vositalari sifatida ham keng qo'llaniladi. Glutamin kislotasi oqsil va uglevodlar almashinuvida ishtirot etadi, oksidlanish jarayonlarini stimullaydi, miya hujayralarining nafasini ushlab turishda muhim ahamiyatga ega, markaziy nerv sistemasi kasalliklarini davolashda ham foydalaniladi [2]. Alanin miyadagi ishemik kasalliklarni davolashda qo'llanadi. Prolin sintetik nootropik vositalar tarkibiga kirib, u kollagenning asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi[3]. Metionin jigar kasalliklari va toksik zaharlanishlarni davolashda qo'llanilsa, glitsin miyadagi moddalar almashinuvni jarayonlarini yaxshilashda, shuningdek, tibbiyotda alkogolga moyillikni kamaytiruvchi vosita sifatida foydalanish mumkin[4].

Aminokislotalar keng farmakologik ta'sir spektriga ega bo'lganligi uchun organizmda oson hazm bo'ladi, shu bilan birga inson organizmi uchun havfsiz vositadir [5]. Almashinmaydigan aminokislotalarga ega bo'lgan o'simliklardan xalq tabobati uchun keng foydalanish, xavfsiz dori vositalarini tayyorlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shunday o'simliklardan biri eriobotrya japonica bo'lib, u o'zining foydali komponentlarga boyligi bilan turli xildagi kasalliklarni oldini olishga yordam beradi.

Eriobotrya japonica - ra'nodoshlar (rosaceae) oilasiga kiruvchi tropik doim yashil daraxt bo'lib, uning balandligi 6–8 m ni tashkil etadi, tana va shoxlarining rangi to'qkulrang. Barglari yirik, dag'al, shakli uzunchoq, ba'zan ovalsimon, uchi o'tkir, yuzasi yaltiroq, yaproqning ostki tomoni tukli. Mushmulaning gullashi oktabr oyida boshlanib, dekabr oyiga qadar davom etadi. Ba'zan iqlim

o'zgarishiga qarab yanvar-fevral oylarida ham gullashi mumkin. Gullari gulshodaga to'plangan bo'lib, juda nozik va xushbo'y, rangi ochsariq. Mevalari shingil bo'lib, har bir shingilda 12 tadan noksimon, ba'zan, dumaloq shakldagi mevalar joylashgan. Mevaning yuzasi bir oz tukli bo'lib, uzunligi 3-5 sm ni tashkil etadi[6].

Antioksidantlarga, fruktoza va limon kislotasiga boy, past kaloriyalı *eribotrya japonica* ko'pincha parhez ovqatlanish ratsioniga kiritiladi. Bu diabetdan davolanishga yordam beradi, organizmning infeksiyalarga chidamliligini oshiradi, buyrak disfunksiyasining alomatlarini yo'q qiladi, ularning filtrlash qobiliyatini oshiradi, tanadan toksinlar olib tashlaydi, ko'rish qobiliyatini, ovqat hazm qilish organlarining faoliyatini yaxshilaydi, ichak kasalliklarini, masalan, ich qotishini yo'q qiladi, qon bosimini barqarorlashtirishga yordam beradi, ichak kolikasini yengillashtiradi va burun bitishining oldini oladi[7].

Tadqiqotning maqsadi: *eribotrya japonica* o'simligi mevasi tarkibidagi urug'ning aminokislotalar tarkibini sifat va miqdor jihatdan yuqori samarali suyuqlik xromotografiya usulida o'rganishdan iborat.

Farg'ona viloyatida yetishtirib kelinayotgan eribotrya japonica o'simligi mevasidan ajratib olingan urug'i namuna sifatida tanlab olindi hamda tarkibidagi aminokislotalarni sifat va miqdor jihatdan aniqlash Guliston davlat universiteti kimyo-biologiya kafedrasiga qarashli laboratoriyyada o'tkazildi.

**Kerakli asbob va reaktivlar:** Yuqori samarali suyuqlik xromatografi (YuSSX) Agilent 1260 II Infiniti qurilmasi floresan (FLD) detektori, Poroshel 120 EC-C-18 (150 mm × 4,6 mm × 4 mkm) kolonkalari, Aldrich aminokislotalarning standart namunalari (Germaniyada ishlab chiqarilgan), FA220 4N analitik tarozisi, termostat, magnitli aralashtirgish, sentrafuga, 0,45 µm filtr, natriy gidroksid eritmasi, xlorid kislota eritmasi, natriy digidrofosfat eritmasi, asetonitril, metanol, suv, kolbalar, pipetkalar, hovoncha dastasi bilan.

Eribotrya japonica urug'i namuna sifatida tanlab olinib, uning tarkibidagi aminokislotalar Sigma Aldrich Germaniyadan keltirilgan standart namunalar asosida sifat va miqdor ko'rsatgichlarini Agilent Technologies, AQSh (Agilent) ishlab chiqarilgan YuSSX Agilent 1260 II Infiniti qurilmasi floresan (FLD) detektori yordamida aniqlandi. Qo'zg'almas faza Poroshel 120 EC-C-18 (150 mm × 4,6 mm × 4 mkm) AQSH kolonkadan foydalanildi. Kolonkadan oldingi derivativatsiya avtomatik dasturlashtirilgan rejimda amalga oshirildi. Aminokislotalar analizini amalga oshirishda ko'chma faza sifatida A - natriy digidrofosfat eritmasi (40 mM) pH 7,8 va mobil faza B - asetonitril:metanol:suv (45:45:10) o'zgaruvchan rejim asosida amalga oshirildi.


### 1-jadval

#### YUSSX ishlash rejimi

Vaqt	A faza % natriy digidrofosfat eritmasi (40 mM) pH 7,8	B faza % Asetonitril: metanol: suv (45:45:10)
0.0	98	2
16	70	30
23	57	43
26	0	100
28	98	
30	98	2

## KIMYO

Aminokislotalar hosilalari yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida identifikatsiya qilindi. Xromatografiyalash rejimi quyidagicha sharoitda olib borildi: oqim tezligi 1 ml/minda, termostat harorati 40°C da ineksiya qilingan namuna hajmi 5 mkl, analiz vaqt 30 minutda amalga oshirildi. Natijada aminokislotalar standartlari bo'yicha xromotogrammalari olindi (1-rasm).



**1-rasm. Aminokislaturalarning standart namunalarini xromotogrammasi**

Namuna tarkibidagi aminokislotalar gidrolizi quyidagicha amalga oshirildi: Dastlab eiobotrya japonica urug'lari hovonchada 1 mm kattalikda qilib maydalab olindi va tayyor bo'lgan namunadan 5 g analitik tarozida (0,001 mg aniqlikgacha) o'lchandi. So'ngra teskari sovutgich o'rnatilgan 200 ml li kolbaga 50 ml 6 N li xlorid kislotasi eritmasiga solinib, 110°C da termostatga joylashtirildi. Gidroliz 24 soat davomida magnit aralashtirgichda aralashtirildi. Gidroliz tugaganidan so'ng eritma xona haroratigacha sovutildi va namunadan 10 ml olib, 10 minut davomida 1200 ayl/daq sentrafuga qilindi so'ngra 5 ml olib 6 N natriy ishqori yordamida neytrallandi, so'ngra 1 ml eritma 0,45 μm filtrda filtrlab olinib vialga joylashtirildi.

### NATIJA VA MUHOKAMA


Yuqori samarali suyuqlik xromatografik usulda quyidagicha natijalar olindi (2-jadval).

### 2-jadval


#### Eriobotrya japonica urug'i tarkibidagi aminokislotalar miqdori (mg/g hisobida)

No	Aminokislotalar nomi	Urug'i tarkibidagi miqdori (mg/g)
1.	Leysin	-
2.	Arginin	0.0656
3.	Alanin	0.207
4.	Fenilalanin	0.0425
5.	Gistidin	0.0144
6.	Glitsin	0.927
7.	Glutamat	0.27
8.	Glutamin	-
9.	Izoleysin	0.16
10.	Asparagin	-
11.	Lizin	18.947
12.	Metionin	0.017
13.	Pirolin	-
14.	Serin	0.2839

15.	Treonin	-
16.	Triptofan	0.097
17.	Tirozin	0.034
18.	Valin	0.0474



2-rasm. *Eriobotrya japonica* urug'idagi aminokislotalar tarkibi



3-rasm. *Eriobotrya japonica* urug'i tarkibidagi aminokislotalar diagrammasi

3-rasmda keltirilgan diagramma natijalaridan ham ko'rish mumkinki, eriobotrya japonica urug'i tarkibida 20 xil aminokislotalardan 18 tasi tadqiq etilgan. Namuna tarkibidagi aminokislotalarda 13 turdag'i aminokislotalar mavjud bo'lib, eng yuqori miqdorda lizin (18.947mg/g) mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, eriobotrya japonica (mushmula) urug'ida almashinmaydigan aminokislotalardan arginin (0.0656mg/g), valin (0.0474mg/g), gistidin (0.0144mg/g), izoleysin (0.16mg/g), metionin (0.017mg/g), triptofan (0.097mg/g), fenilalaninlar (0.0425mg/g) mavjuddir. Almashinadigan aminokislotalardan esa glitsin (0.927mg/g), alanin (0.207mg/g), serin (0.2839mg/g) va tirozin (0.034mg/g) aminokislotalari bor ekanlig'i tadqiq etildi. Namuna tarkibida leysin, glutamin, asparagin, prolin va trianin aminokislotalari uchramadi. Monoaminokarbon kislotalardan 7 turdagisi eriobotrya japonica urug'i tarkibida aniqlangan. Monoaminodikarbon kislotalar (asparagin va glutamin) mavjud emas. Asosan alifatik kislotalar (9 xil) ko'proq miqdorda

**KIMYO**

namuna tarkibida tadqiq etilgan. Aromatik aminokislotalardan tirozin va fenilalaninlar, geterosiklik kislotalardan esa prolin va gistedinlar mushmula urug'i tarkibida aniqlandi. Almashinmaydigan aminokislotalar miqdori 0.0144mg/g dan 18.947mg/g ga qadar bo'lgan.

Aminokislotalarni namuna tarkibida ortib borish tartibida joylansa, ular quyidagicha tizimlashadi:

His<Met<Tyr<Phe<Val<Arg<Trp<Ile<Ala<Ser<Gly<Lys.

**XULOSA**

Demak, eriobotrya japonica urug'i tarkibidagi boshqa biologik faol birikmalar bilan birlgilikda tarkibidagi almashinmaydigan aminokislotalarning mavjudligi uning terapevtik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi hamda yangi turdag'i tabiiy dori vositalarini ishlab chiqarishga zamin yaratadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Шкроботъко П.Ю. (2009). Аминокислотный состав подземных органов валерианы Фори и валерианы бузинолистной / П.Ю. Шкроботъко, Д.М. Попов, Н.С. Фурса // Фармация. — №7. — С.19-23.
2. Шуляковская Т.А. (2007). Динамика содержания аминокислот в почках и листьях *Betula pubescens* и *B. pendula* (Betulaceae) в течение вегетационного периода / Т.А. Шуляковская [и др.] // Растительные ресурсы.— Т. 43, вып. 4. — С. 87-94.
3. Шилова И.В. (2002). Аминокислотный и минеральный состав надземной части *Atragene speciosa* Weinm / И.В. Шилова [и др.] // Химико-фармацевтический журнал.— Т.36. — №11. — С. 36-38.
4. Шилова И.В. (2008). Аминокислотный и элемент- состав активной фракции княжика сибирского / И.В. Шилова [и др.] // Вопросы биологиче-ской, медицинской и фармацевтической химии. — № 3. — С. 34-37.
5. I.R.Asqarov, Yu.T.Isayev, A.G.Maxsumov, Sh.M.Qirg'izov (2022). Organik kimyo T.: G.Gulom nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi. -752b.
6. G.Zakirova, V. Khojaev, D.Karimova (2023). Study of the chemical composition of the plant eriobotrya japonica//international Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and education Poland, Conference august 20<sup>th</sup> Pp.29-33.
7. Каримова Диловар Батировна, Закирова Гулнора Иброхимжон Кизи,  
& Носирова Висолахон Мирзаюнусжон кизи (2023). Сравнительный анализ минерального состава листьев растения eriobotrya japonica Universum: химия и биология, (10-2(112)), 5-9.  
doi:1032743/UniChem.2023.112.10.16025